

## IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK INNOVATSION YONDASHUV

Baxtiyor BERDIYOROV,

Toshkent moliya instituti dotsenti,  
iqtisod fanlari nomzodi

### Annotation

today, the role of economic sciences in improving the financial literacy of young people is incomparable. It is important to ensure the integration of science, technology and technology in the implementation of this process. For this, a pedagogical innovative approach to the teaching of economic sciences is required. Studying innovations in our country, applying it to the educational process, from the traditional type of teaching based on providing ready-made information in connection with the issues of reforming the educational system, students are encouraged to search and find information on their own. It is based on actions towards the transition to the educational system. Accordingly, the need for new knowledge, the need to understand the essence of concepts such as innovation and innovative processes will increase. Innovative activity requires the acquisition of knowledge, skills and abilities based on directing the mental, mental and physical strength of the pedagogue to a certain goal, supplementing practical activities with theoretical knowledge, developing knowledge, design, communicative speech and organizational skills.

### Key words

innovation, economic science, education, pedagogical innovation, technology, economic knowledge, thinking, innovation, innovative activity, creativity, scientific research, communicative ability

### Аннотация

сегодня роль экономических наук в повышении финансовой грамотности молодежи несопоставима. Важно обеспечить интеграцию науки, техники и техники в реализации этого процесса. Для этого необходим педагогический инновационный подход к преподаванию экономических наук. Изучая инновации в нашей стране, применяя их в образовательном процессе от традиционного типа обучения, основанного на предоставлении готовой информации в связи с вопросами реформирования образовательной системы, обучающимся предлагается искать и находить информацию самостоятельно. В его основе лежат действия по переходу к системе образования. Соответственно, возрастет потребность в новых знаниях, потребность в понимании

сущности таких понятий, как инновации, инновационные процессы. Инновационная деятельность требует приобретения знаний, навыков и умений, основанных на направлении умственных, умственных и физических сил педагога к определенной цели, дополнении практической деятельности теоретическими знаниями, развитии знаний, дизайна, коммуникативной речи и организаторских способностей.

### Ключевые слова

инновации, экономическая наука, образование, педагогические инновации, технологии, экономические знания, мышление, инновации, инновационная деятельность, творчество, научные исследования, коммуникативные способности.

### Annotatsiya

*bugungi kunda yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishda iqtisodiy fanlarning o'rni be-qiyosdir. Bu jarayonni amalga oshirishda ilm-fan, texnika va texnologiya uzviyilagini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik innovatsion yondashuv talab etiladi. Mamlakatimizda innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lif jarayoniga tatbiq etish ta'lif tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, talabalarni izlanishga, ma'lumotlarni o'zlarini izlab topishga o'rgatadigan ta'lif tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj, innovatsiya, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchayadi. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.*

### Kalit so'zlar

innovatsiya, iqtisodiy fan, ta'lif – tarbiya, pedagogik innovatsion, texnologiya, iqtisodiy bilim, tafakkur, novatorlik, innovatsion faoliyat, ijodkorlik, ilmiy tadqiqot, kommunikativ qobiliyat.

### Kirish

Bugungi kunda har qanday mamlakatning rivojlanishida innovatsiyalar muhim vosieta bo'lib, bu borada tashabbuskor yoshlarga harakatlantiruvchi kuch va ulkan resurs sifatida qaraladi. Yoshlarning odatiy hayotiy muhitiga innovatsion turmush tarzini tatbiq etish boshqa avlod vakillariga nisbatan muvaffaqiyatliroq kechadi. Chunki aynan yoshlar hayotning barcha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yangiliklarga o'ta sezgir, yuqori ijodiy intellektual salohiyatga ega, jamiyatni modernizatsiyalashga qodir bo'lgan va innovatsion

o'zgarishlar, hamda faollikka moyil qatlam.

Yoshlarning intellektual salohiyati va innovatsion faolligini oshirish ta'lif-tarbiya, ilmiy-ijodiy izlanish, sotsial faollik, inson va jamiyat, komillik, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot kabi ilmiy muammolar bilan bog'liqdir. Shuning uchun uni mazkur muammolar bilan uy-g'unlashgan holda tatbiq etish darkor.

Metodologiya. Yoshlarning innovatsion xulq-atvorini shakllantirishga, bir tomonidan, obyektiv omillar – jamiyatning ijtimoiy tuzilishi integratsiyasiga yordam beruvchi, makro-iqtisodiy muhitning obyektiv o'zgarayotgan shart-sharoitlari bo'lib, bular nafaqat yosh avlodning xatti-harakati shakllanishiga, balki ijtimoiy tuzilmaning rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi kuch hisoblanadi. Ikkinchi tomonidan, ijtimoiy taraqqiyot omillari yoshlarning ongida aks ettirilib, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, stereotiplari, ma'naviy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy yoshlar bugungi kunda maqsadga yo'naltirilgan insoniy sa'y-harakatlariga bog'liq va aksariyat insonlar kelajakka nisbatan faol pozitsiyasini egallaganliklari bilan ta'riflanadigan dunyoda yashamoqda; jahonda o'zaro bog'liklar va hamkorlik zaruriyati oshmoqda, bu esa, o'z navbatida, kutilmaganlik va noaniqlik ko'lamenti oshiradi; ijtimoiy hayot insoniy faoliyatning yangi, keng miqyosli xavf-xatarlari bilan to'lmoqda; salbiy natijalarga olib keluvchi katastrofik xatolar kengaymoqda. Atrofimizda noodatiy insonlar ortib bormoqda (migratsiya, turizm, sayyohlik). Bunday vaziyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda yoshlar eng nozik ijtimoiy guruh bo'lib qolyapti.

Mamlakatimiz ta'lif jarayonida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, yaratuvchanlikka intiluvchi shijoatkor kadrlar yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lif tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergen ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lif mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergen o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin.

Yoshlarning iqtisodiy bilim olishga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan kasblarini egallashlari uchun iqtisodiy fanlarni o'qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan yetuk mutaxassislar zarur. Bu masalaning bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham tasdiqlamoqda: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda" [1:12]. Ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni asosiy o'ringa ko'tarish zamon talabidir. Bolaning butun hayot davomida, ta'lifning barcha bosqichlarida mustaqil fikr yurita olishi asosiy talab bo'lib qolishi kerak. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga axborotlar oqimi shiddat bilan kirib kelmoqda va uning ko'lami kengayib bormoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni

tahlil etish, qayta ishslash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa qilish hamda talabaga yetkazib berishni yo'nga qo'yish ta'lism tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lism-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobjiy hal etishga xizmat qiladi. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi. Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarda tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruratini ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingen obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi. Pedagogik innovatsiyalar ta'lism va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmajan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi bilan bog'liqdir. Innovatsion jarayonning tashkil etilishida quyidagi ikkita yondashuv mavjud:

- yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandaydir yangi g'oya amaliyotga joriy etiladi);
- alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, birligi, raqobati va birining or'nni ikkinchisi egallay olishi ahamiyatlari sanaladi).

Innovatsion jarayonlar quyidagi ikkita muhim bosqichdan iborat:

- Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (korxona, tashkilot tomonidan muayyan turdag'i mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).
- Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda mamlakatimizda yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish amaliy harakatlari borasida hal qilinmagan ilmiy muammolar mavjudligini e'tirof etish mumkin [2: 62].

Mamlakatimizda innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lif jarayoniga tatbiq etish ta'lif tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, talabalarni izlanishga, ma'lumotlarni o'zlarini izlab topishga o'rgatadigan ta'lif tizimiga o'tish yo'llidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj, innovatsiya, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchayadi (Muallif fikri).

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yordarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi [2: 48].

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma va malakalarni egallah, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

## Natijalar

---

Pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallahga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallah;
- mualliflik konsepsiyanlarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlari rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olish;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;

Yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyor-garlik;

- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati va boshqalardir.

### Xulosa

---

Xulosa o'rnidagi shuni aytish mumkinki, bugungi kunda talaba yoshlarga iqtisodiy sa-vodxonligini oshirishda iqtisodiy fanlarni o'qitish dolzarb masala hisoblanadi. O'z navbatida, talaba yoshlarimizni iqtisodiy bilim olishlariga pedagog ustozlarimizning bilim berishi va tajribasi muhim rol o'ynaydi. Buning uchun esa pedagog ustozlardan bilim va yetuk tajriba, shijoat va fidoyilik hamda har doim pedagogik innovatsion yondashuv talab etiladi. Bu esa kelajakda talaba yoshlari uchun o'zining ijobiliy samarasini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

---

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqi-yoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'limg texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1997.